



MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH HAJMI TAHLILINING VAZIFALARI

Malikova Sevinch Telman qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Dehqonov Bekzodjon Odiljon O'g'li

Guliston davlat universiteti talabasi

Turayeva Gulizahro Kaxxarovna

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mulk shaklidan qat'iy nazar barcha firma va kompaniyalarda ishlab chiqarilgan mahsulot asosan sotish uchun mo'ljallangan. Ya'ni faqatgina buyurtmachi talabi asosida va ist'emoilchilarning didini mo'ljallab, barcha talabni qondirish maqsadida sifatli tovarlar ishlab chiqarishga harakat qiladilar. Ishlabchiqarilgan mahsulotlarni o'z vaqtida sotilishi korxonaning ijobiy moliyaviy natijaga erishishi, dividend to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag'larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko'p moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash imkoniyatini tug'diradi.

Kalit so'zlar: Mahsulot ishlab chiqarish dasturi, ish haqi fondi, aylanma mablag'lar, yalpi mahsulot.

Kirish. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'sishi bir tomondan yalpi ijtimoiy ishlab chiqarilgan mahsulot va milliy daromad hajmini oshirsa, ikkinchi

tomondan korxonada daromadini oshirish va ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan o'stirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilishi korxonadagi barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. O'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish dasturini bajarilmasligiga ham turli omillar ta'sir etadi. Bu omillar ta'sirini o'rganish esa korxonada uchun qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlashga va ulardan ishlab chiqarishni samaradorligini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlaydi.

Tahlil va natija. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi–korxonada faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning asosida ish kuchiga bo'lgan talab va ishlab chiqarish quvvatlari, ish haqi fondi, aylanma mablag'lar va hokazolar aniqlanadi.

Korxonada bo'yicha barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o'lchovida umumlashadi. Tahlil o'tkazishdan sanoat korxonalari ishlab chiqargan mahsulot hajmini o'rganishda quyidagi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

- yalpi mahsulot; - tovar mahsuloti; - sotilgan mahsulot.

Yalpi mahsulot ko'rsatkichi ishlab chiqarish hajmiga baho berish uchun qo'llaniladi; tovar mahsuloti esa mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga



baho berish uchun qo'llaniladi; sotish hajmining bajarilish esa sotilgan mahsulot uchun korxonaning hisobiga pul mablag'i kelib tushganligini bildiradi. Tovar mahsuloti–ishlov berish jarayoni to'liq tugallangan, korxonaga omborlariga qabul qilingan va sotish uchun tayyor mahsulotdir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$TM = \text{Mish.ber.} + YAT + SI$$

Bunda:

Mish.ber - Ishlab chiqarish jarayonida to'liq ishlov berilgan mahsulot qiymati;

Yat - yarim tayyor mahsulotlar qiymati;

Si - sanoat xarakteridagi ishlar, maishiy xizmat ko'rsatish va korxonaga tarkibidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xo'jaliklarda bajarilgan ish qiymati. Shu bilan birga, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sish sur'atlarini aniqlash uchun korxonalarda yalpi mahsulot ko'rsatkichi hisoblab chiqiladi. Yalpi mahsulot korxonaning ma'lum bir xo'jalik yilida bajarilgan ishlarining umumiy hajmini so'm hisobida ifodalaydigan ko'rsatkichdir va uning tarkibiga Tovar mahsuloti hamda korxonaga ichidagi aylanma mablag'lar kiradi. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YAM = TM + (TICH_0 - Tich_b) + (Yat_0 - Yat_b) + (Ko - Kb)$$

Bunda:

TM – tovar mahsuloti qiymati (ming so'm);

Tich₀, Tich_b - hisobot yili boshi va oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi;

Yat₀, Yat_b – korxonaga o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar hajmi yil boshi va oxirida (ming so'm);

Ko, Kb – korxonaga o'zida ishlab chiqarilgan jihozlarning yil boshi va oxiridagi qoldig'i (ming so'm).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga bozor raqobatiga bardosh bera olishi uchun sifatli va iste'molchi talabini qondiruvchi mahsulot ishlab chiqarishi kerak. Sotilgan mahsulot hajmi ko'rsatkichi bozorda sotilgan mahsulotlar uchun korxonaga kelib tushgan pul mablag'lari bo'lib, korxonaga moliyaviy holatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SM = TM + (Q_b - Q_o) + (TQ_b - TQ_o) + (D_b - D_o)$$

Bunda:

Q_b, Q_o – reja yili boshi va oxiridagi tayyor tovar mahsuloti qoldig'i;

TQ_b, TQ_o - hisobot yili davrida ortib jo'natilgan tovar mahsuloti qoldig'i;

D_b, D_o – reja yili boshi va oxiridagi sotilgan mahsulot bo'yicha debitorlar.



Xulosa. Yuqorida keltirilgan uslub asosida ko'rsatkichlar rejalashtirilganda sotilgan mahsulot hajmi va tovar mahsuloti hajmi ko'rsatkichlari bir-biriga mos kelishi kerak. Aks holda, agarda sotilgan mahsulot hajmi tovar mahsuloti hajmidan kam bo'lsa, korxonada ichki imkoniyatlaridan foydalanilmagan bo'ladi; agarda sotilgan mahsulot hajmi tovar mahsuloti hajmidan ko'p bo'lsa, korxonada ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi.-T.: O'zbekiston. 2019 yil. 30 dekabr
2. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.2016.13.04.
3. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri) 2000 yil 26 may.
4. A.V.Muxametov. Moliyaviy hisob.-T.: Moliya. 2024.-272 b.
5. Бектимирова, А., & Атаходжаева, Г. (2023). The prevalence of chronic kidney disease among patients with chronic heart failure. Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века, 1(1), 40-40.
6. Атаходжаева, Г. А., Артыкова, С. Г., & Арипова, Д. Ш. (2017). Оценка фактора воспаления при остром коронарном синдроме. Молодой ученый, (44), 33-35.
7. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko 'nikmasini shakllantirish muammolari. O 'ZBEKIST, 87.
8. Бектимирова, А., & Атаходжаева, Г. (2023). Cardio-respiratory manifestations of pulmonary hypertension in patients with chronic obstructive pulmonary disease. Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века, 1(1), 41-41.
9. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
10. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23).